



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

DIALOGIK DISKURSGA TA'SIR ETUVCHI SEMANTIK, PRAGMATIK, SINTAKTIK VOSITALAR

Mehmonova Ozoda Ravxshan qizi

Quvasoy shahar, 1-IDUM, ingliz tili o'qituvchisi

ozoda.mekhmonova90@mail.ru

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15179401>

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kunda tilshunoslikda dolzarb hisoblangan masalalardan biri dialogik diskurs mavzusi tadbiq etilgan. Shuningdek, dialogning asosiy belgilaridan biri so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi savol-javob jarayoni va uning lingvopragmatik xususiyatlari namunalar asosida o'rganilgan. Maqolada bundan tashqari dialogik nutq shakllanishiga xizmat qiluvchi leksik, semantik va sintaktik birliklar haqida ham ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: dialog, kontekst, so'zlovchi, tinglovchi, nutq akti, diskurs, og'zaki muloqot.

Kirish. Dialogik nutq katta hajmli semantik tarkibga ega bo'lgan, kommunikativ-pragmatik tahlil orqali ochilishi mumkin bo'lgan jarayondir. Dialog jarayonida aytilgan gaplar faqatgina ma'lumot berish funksiyasidan tashqari tinglovchi tomon yetkazilishi kerak bo'lgan modal, hissiy va ijtimoiy ma'lumotlardan tashkil topgan hajmli kommunikativ bo'yoqlarni ham o'z ichiga oladi.

Asosiy qism. Shuni aytib o'tishimiz joizki, oldindan tayyorlab qo'yilgan nutqlar, yozma xabarlar va boshqa turdagi matnlardan farqli o'laroq, dialogik nutq jonli, dinamik ruhiyatni o'zida ushlab turadi. Dialog jarayonida nutq ishtirokchilari o'z fikrlari bilan bir qatorda tuyg'ulari va emotsiyalarini jonli ravishda namoyon etadilar. Shuningdek muloqot jarayonida so'zlovchi va tinglovchining "dunyolari", ichki olamlari to'qnashadi. Ularning ijtimoiy g'oyalari, psixologik xususiyatlari va vaziyatlar segmentidagi strategiyalari o'z aksini topadi. Bunga shaxslararo munosabatlar, muloqot ishtirokchilarining ijtimoiy rollari shuningdek atrof olamdagi shovqin va vaqt cheklovlari ham qo'shiladi. Dialogning ta'kidlanishi lozim bo'lgan yana bir jihati shundan iboratki, takroriy savollar, o'z-o'zini tuzatish, tushuntirishlar, aytilgan narsaga qaytish va qo'shimcha izoh kiritish holatlari ko'p uchraydi va nutq ishtirokchilari o'rtasidagi tushunmovchiliklarga sabab sifatida keltiriladi. Tilshunos olimlardan bir S. Ballyning fikriga ko'ra, agar so'zlovchi va tinglovchi fikrini maksimal aniqlik bilan yetkazishga harakat qilsa, til muloqot ehtiyojlariga xizmat qiladi va sifatli muloqot tashkillanadi [1]. Dialogik jarayonini o'rganar ekanmiz, dialogik nutq xususiyatlari nimalardan iborat ekanligini ham aniq bilishimiz lozim. Diqqatimizni qaratishimiz lozim bo'lgan masalalardan biri bu reaktivlik va dialogik izchillik. Reaktivlik aslida nutqdagi fikrlarning tabiiy ravishda o'zgarishi va bayon etilishi demakdir. Muloqot bir-birini almashuvchi replikalar



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

zanjiri bilan ifodalanadi va ular orasidagi chegarani biz bir suhbatdosh nutqining oxiri va boshqa suhbatdosh nutqining boshida ko'rishimiz mumkin. Dialog matnida ikki suhbatdosh bo'lishiga qaramay, dialog bir butun nutq ko'rinishi hisoblanadi. Bu borada V.Ivanova "dialog jarayonida subyektlar rollarini o'zgartirib bir butun matn yaratadi", deya takidlagan [2]. Shunday qilib, dialog bir nechta shaxslar ishtirokidagi o'ziga xos yagona matn demakdir. Darhaqiqat, dialog a'zolaridan faqat bittasining fikr-mulohazalarini kompozitsion va semantik tarkibini o'zgartirmagan holda matndan ajratib bo'lmaydi. Dialog tarkibidagi lisoniy birliklar, jumlar va mulohazalar ma'lum qoidalar asosida o'zaro bog'langan bo'ladi. Ushbu bog'lanish bog'lovchi so'zlar yordamida ham amalga oshirilishi mumkin. Uning kichik bir bo'lagini tahlil qilish orqali dialogning to'liq ma'nosini anglab bo'lmaydi. Taniqli tilshunoslardan biri Birdina ushbu bog'lanishni "Bir xil so'z birinchi replikaning oxirida va keyingi suhbatdosh nutqining boshida qo'llanilishi mumkin. Bir turga mansub bo'lgan so'zlar, olmoshlar dialogning har bir a'zosi tomonidan ishlatilishi mumkin" deya izoh bergan [3]. Muloqotning bunday belgisi dialogik uyg'unlik deb nomlanadi. Dialogik uyg'unlik tushunchasiga to'liq ta'rif beradigan bo'lsak, u matnning kommunikativ, strukturaviy va semantik yaxlitligi demakdir. Bir tomondan olib qaraganda, ma'ruzachi nutqining davomi bu uning suhbatdoshi so'zlaridan keyin bayon etadigan fikrlari bilan ifoda etiladi. Boshqa tomondan tahlil qilsak, ikkinchi suhbatdosh mulohazasi birinchi so'zlovchi fikrlarining davomi sifatida o'zaro chambarchas bog'liq hisoblanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, dialogik muloqotdagi har bir gap qanchalik to'liq, mazmunli va mukammal bo'lmasin, faqatgina uzluksiz og'zaki suhbatning kichkina bo'lakchasi hisoblanib, nutq ishtirokchilarining bir-birlariga bo'lgan munosabat va idrok etishlari natijasidir. Shu bilan birga, dialogning tuzilishi dinamik bo'lib, bunda rivojlanish nazarda tutiladi. Dialog tarkibidagi replikalar o'zaro bog'liq va bir-biri bilan aloqador hisoblanadi. Dialogning tematik yaxlitligi bu uning asosiy omillaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Балли Ш. Общая лингвистика и вопросы французского языка. М.: Издательство иностранной литературы, 2005. - 416 с
2. Иванова В.И. Содержательные аспекты предложения-высказывания. — Тверь, 1997. - 162с.
3. Бырдина Г.В. Динамическая структура диалогической речи. Тверь: Тверской государственный университет, 1992. — 85 с.
4. Hakimov M. O'zbek pragmalingvistika asoslari. —Toshkent, 2013.
5. Sh.Safarov. Pragmalingvistika. Toshkent 2008.
6. Austin J.L. How To Do Things With Words. —Oxford: Oxford Univ. Press., 1962; 2 nd ed., 1973.- 167 p